

CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMUQLI ILMIY KONFERENSIYA


# YANGI O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCES.UZ

INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN ELEKTR BATAREYA



RESPUBLIKA KO'P TARMUQLI ILMIY KONFERENSIYA | RESPUBLIKA KO'P TARMUQLI ILMIY KONFERENSIYA | RESPUBLIKA KO'P TARMUQLI ILMIY KONFERENSIYA | RESPUBLIKA KO'P TARMUQLI ILMIY KONFERENSIYA | RESPUBLIKA KO'P TARMUQLI ILMIY KONFERENSIYA | RESPUBLIKA KO'P TARMUQLI ILMIY KONFERENSIYA | RESPUBLIKA KO'P TARMUQLI ILMIY KONFERENSIYA | RESPUBLIKA KO'P TARMUQLI ILMIY KONFERENSIYA | RESPUBLIKA KO'P TARMUQLI ILMIY KONFERENSIYA | RESPUBLIKA KO'P TARMUQLI ILMIY KONFERENSIYA



 MAY №52



**FIZIKA FANINI O'QITISHDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRIB BORISH VA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASH.**

**Muhammadova Dilafruz Ahmatovna**  
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi  
**Qurbonova Mohinabonu Husenovna**  
Buxoro davlat universiteti talabasi  
dilafruzmuhammedova053@mail.com

**ANNOTASIYA:** Hozirgi kunda fizika fanini o'qitishdagi muammolar, tayanch kompetensiyalarni yo'lga qo'yish orqali bu muammolarni bartaraf etish va o'quvchilar bilimini to'g'ri baholashni ochib beradi.

**KALIT SO'ZLAR:** o'quvchilarning ma'naviy kuchlari va qobiliyatlari, yangi O'zbekiston ostonasi, kompetensiya, o'quvchilar bilimini baholash.

Ayni zamonlarda jamiyatimizning barcha sohalarida jahon standartlariga javob berish uchun katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Shu jumladan ta'lim tizimida ham katta o'zgarishlar yuz berayapti. Davlatimiz rahbari tomonidan 2021 yil 24 dekabrda oliy ta'lim tub ijobiy o'zgarishlarga olib keladigan oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy, akademik va tashkiliy boshqaruvda mustaqillik berish borasida ikkita tarixiy qaror imzoladi. Bu esa ta'limning rivojlanishiga yanada hissa qo'shadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi”. Darhaqiqat farzandlarimiz qanchalik kuchli bilimga ega bo'lsalar, texnologiyaga asoslangan iqtisodiyotga tarmoqlarimiz tez rivojlanadi.

Fizikani predmet sifatida o'qitishda kasbiy yo'naltirish o'qitishning maqsadlaridan biri sifatida ham, bilimlar sifatini oshirishning muhim faktori sifatida ham xizmat qiladi. Fizikani kasbiy yo'naltirib o'qitish faqatgina kasbiy chaqqonlikni oshiribgina qolmay, shu bilan birga o'quvchilarning ma'naviy kuchlarini va qobiliyatlarini ham rivojlantirishga, ularda ilmiy dunyoqarashni, ijobiy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni shakllantirishga ham imkon beradi.

Shu bilan bir qatorda professor-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashda kvalimetriyaning asosiy metodlaridan biri, test topshiriqlaridan foydalanish, standart va nostandart test topshiriqlarini tuza olishi, test o'tkazish jarayonining metodikasi, olingan natijalarni ekspertizadan o'tkazish, yakuniy natijalarni umumlashtirish, pedagogning kasbiy-pedagogik modelini tuzish va modelning har bir tarkibiy qismining egallanganlik darajasini aniqlash, talabalarning umumiy va kasbiy layoqatini aniqlash metodikasi, talabalar tomonidan bilimlarni egallaganlik va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash va pedagogik xulosa yasash malakasini egallagan bo'lishi zarur.

O'quvchilar bilimini baholash ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Ta'lim sifatini hamda o'quvchilarni bilim darajalarini doimiy ravishda nazorat qilib borish ta'lim jarayoniga muhim yangiliklar kiritishga asos bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. D.A. Muhammadova. To develop the inventive components of students in physics lessons Involta” Ilmiy Jurnali Vol. 1 No.6 (2022) Involta Scientific Journal 395-404
2. D.A. Muhammadova. M.X.Qurbonova. O'quvchilar bilimini nazorat qilishda testdan foydalanish. Hozirgi zamon fizikasining dolzarb muammolari. Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materialllari. (2023) 502-503
3. D.A. Muhammadova. DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMPETENCE IN WORKING WITH INFORMATION IN PHYSICS LESSONS. (2023) 35-39